KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек ўғли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdukarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmitdinovich	



DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Temirov Muradjon Najmitdinovich

TDIU, Iqtisodiy statistika kafedrası mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining rivojlanishi davlat moliyaviy nazorati tizimida qanday ahamiyat kasb etayotgani tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim vositaga aylangan. Ayniqsa, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda real vaqt rejimida axborot olish imkoniyati davlat moliyaviy nazoratining tezkorligi va aniqligini ta'minlaydi. Maqolada axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari tizimli tarzda ko'rib chiqilib, ularning asosiy turlari hamda moliyaviy nazoratga daxldor sohalardagi qo'llanilish yo'nalishlari aniqlanadi. Shuningdek, bu texnologiyalarni davlat moliyaviy nazoratida samarali qo'llashga qaratilgan maqsad va vazifalar yoritiladi. **Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, davlat moliyaviy nazorati, texnologik rivojlanish bosqichlari, nazorat shakllari, samaradorlik.

Abstract. This article analyzes the significance of the development of information technologies in the system of state financial control. Digital transformation has become a key tool in enhancing the effectiveness of public administration. In particular, access to real-time data enables more accurate and timely decision-making in financial control processes. The paper classifies the stages of IT development, identifies the main types of technologies, and outlines their application in areas related to state financial control. Additionally, the article defines the goals and objectives of utilizing information technologies effectively in the public financial control system.

Key words: information technologies, state financial control, stages of technological development, control forms, efficiency.

Аннотация. В статье анализируется значение развития информационных технологий в системе государственного финансового контроля. Цифровая трансформация становится ключевым инструментом повышения эффективности государственного управления. Особенно актуальным является получение оперативной информации для принятия управленческих решений, что способствует точности и оперативности финансового контроля. В статье систематизированы этапы развития информационных технологий, определены их основные виды и направления использования в смежных с финансовым контролем сферах. Также обозначены цели и задачи эффективного применения информационных технологий в государственном финансовом контроле.

Ключевые слова: информационные технологии, государственный финансовый контроль, этапы технологического развития, формы контроля, эффективность.

KIRISH

Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 10-iyulda qabul qilingan "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-100-sonli Farmon davlat moliyaviy nazoratini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Mazkur Farmonda vazirlik va idoralarda ichki audit tizimini takomillashtirish, uni raqamlashtirish, shuningdek, konsolidatsiyalashgan budjet ijrosini tashqi auditdan o'tkazish kabi ustuvor vazifalar aniq belgilab berildi.

Mamlakatda davlat moliyasini boshqarish sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari izchil va jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilib, hozirga qadar 34 ta vazirlik va idora mazkur tizimga integratsiya qilindi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, Hisob palatasi tomonidan qo'shimcha manbalarni aniqlash hisobiga davlat budjetiga 3,7 trillion so'm qo'shimcha tushumlar ta'minlandi. Shu bilan birga, vazirlik va idoralarning 9,2 trillion so'mlik samarasiz xarajatlari maqbullashtirilib, 2,3 trillion so'mlik moliyaviy kamchiliklarning oldi olindi hamda davlat xaridlariga oid 4,5 trillion so'mlik kamchiliklar bartaraf etildi [1]. Ushbu natijalar davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi.

Mazkur tizimli islohotlarni 2025-yilda ham izchil davom ettirish rejalashtirilgan. Jumladan, "Masofaviy audit" tizimiga 110 ta vazirlik va idoraning ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali jami 480 trillion so'mlik budjet xarajatlarini qamrab oluvchi keng ko'lamli monitoringni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Budjetga qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash, moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish, shuningdek, davlat ulushi mavjud korxonalar faoliyatini tizimli monitoring qilish doimiy ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Joriy yilda budjetga 309 trillion so'mlik daromadlar tushishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan loyihalarni xalqaro standartlar asosida auditdan o'tkazish amaliyoti izchil yo'lga qo'yilmoqda [2].



Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Bugungi kunda axborot resurslari iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning strategik omili sifatida qaralmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali boshqaruv qarorlarini puxta asoslash, monitoring va tahlil tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazoratining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Shu nuqtai nazardan, axborot texnologiyalarini davlat moliyaviy nazoratida keng joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAHRI

“Axborot” tushunchasi ko‘plab izohli lug‘atlarda mazmunan deyarli bir xil talqin qilinadi va umumiy semantik ma’noga ega. Ushbu tushunchani to‘g‘ri va aniq anglash uchun S.I. Ojegov va N.Yu. Shvedova hamda S.A. Kuznesov tahriri ostida nashr etilgan rus tili izohli lug‘atlariga murojaat qilish muhim hisoblanadi [4]. Mazkur manbalarda “axborot” atamasi tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi, to‘planishi, saqlanishi va insondan insonga uzatilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar majmui sifatida izohlanadi.

S.A. Kuznesov tahriridagi izohli lug‘atda “texnologiyalar” tushunchasi ma’lum natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan vositalar, mexanizmlar va usullar yig‘indisi sifatida talqin etiladi [4]. Ushbu yondashuv zamonaviy rus tilining boshqa izohli lug‘atlarida ham keng e’tirof etilgan [11]. Axborot texnologiyalarining shakllanish tarixi esa zamonaviy sivilizatsiyadan ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. Inson nutqining paydo bo‘lishi bilan kishilar atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni o‘zaro uzatishni boshlaganlar.

Shu nuqtai nazardan, inson nutqi tarixdagi eng dastlabki axborot texnologiyasi sifatida qaraladi. Inson tovushlardan so‘zlar hosil qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan nutq apparati orqali axborot almashinuvi uchun ilk vositani yaratgan. Bugungi kunda esa axborot texnologiyalari tushunchasi ancha keng mazmunga ega bo‘lib, elektron hisoblash mashinalari yordamida axborotni yaratish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va boshqarish bilan bog‘liq ilmiy-amaliy faoliyat yo‘nalishlarini qamrab oladi. Zamonaviy talqinda axborot texnologiyalari resurs talabchan va murakkab jarayonlar hamda vazifalarni samarali bajarish maqsadida axborotni to‘plash, tahlil qilish va yetkazish usullarining kompleks majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlat moliyaviy boshqaruvida asosiy vazifalardan biri byudjet mablag‘larini yig‘ish va ulardan oqilona hamda samarali foydalanishni ta'minlashdan iboratdir. Bu masala ayniqsa o‘tish davri iqtisodiyotiga ega davlatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda moliyaviy nazorat tizimi XX asr oxirida rejalı iqtisodiyot sharoitida shakllangan bo‘lib, uning tamoyillari bozor iqtisodiyoti talablariga to‘liq mos kelmagan. Shu sababli, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida byudjet tizimini isloh qilish va takomillashtirish masalalari bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda [11].

Axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi tarixiy jarayonda bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, har bir bosqichda ularni qo‘llash imkoniyatlari va maqsadlari sezilarli darajada kengayib borgan. Axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari 1-jadvalda tizimli ravishda aks ettirilgan [11]. Shuningdek, 1-rasmda axborot texnologiyalarining asosiy turlari tasvirlanib, ular hozirgi kunda ma’lumotlarni yaratish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning samarali vositalari sifatida keng qo‘llanilayotgani ko‘rsatilgan [11].

1-jadval. Axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari

Bosqichlari	Xususiyatlari	Vositalari
“Qo‘l mehnati” XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar	Kishilar ma’lumotlarni axborot tashuvchi qog‘ozlarda qayd etadilar. Axborot texnologiyalarining mexanizatsiyalashgan turlari paydo bo‘la boshladi.	Siyohdon; Siyohqalam; Qog‘oz; Hisobga olish kitobi; Boshqalar.
“Mexanizatsiyalashgan” XIX asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning oxiri	Pochta aloqasi – axborot uzatishning asosiy usuli. Elektrlashtirishning vujudga kelishi texnologik inqilob bo‘lib xizmat qildi. Bu radio, telefon va telegrafning kashf etilishiga olib keldi.	-telefon; - fonograf; - yozuv mashinkasi.
“Elektrlashtirilgan” XIX asrning oxiri –XX asrning 40-60-yillari	Hujjatlarni nusxalash, kichik diktofonlar va boshqa ko‘plab aaratlarning paydo bo‘lishi. Axborot texnologiyalari asosiy konsepsiyalarini o‘zgartirish.	Elektron hisoblash mashinalari; Elektrlashtirilgan yozuv mashinkalari.
“Elektron” XX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillari	Ish jarayonining avtomatlashtirilishi, yangi axborotlarni izlash	Ijtimoiy jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari
“Kompyuterlashtirilgan” XX asrning 80-yillaridan – hozirgi vaqtgacha	Boshqaruvning axborotlashtirilgan tizimi o‘zining takomillashtirilgan tizimida katta aylanmalarni tera boshladi. Boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi axborot texnologiyalarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. “Internet” tarmog‘ining tarqalishi. Axborot texnologiyalari rivojlana boshladi.	Personal kompyuter; Mobil aloqa apparatlari; Idora va maishiy texnika; Internet.



Har qanday axborot texnologiyalarining asosi sifatida ma'lumotlar bazalari muhim o'rin tutadi. Aynan ushbu bazalar tashkilotlarda mavjud bo'lgan turli jarayonlarga oid ma'lumotlarning jamg'arilishi, saqlanishi va tizimlashtirilishini ta'minlaydi. Ma'lumotlar bazasi axborot texnologiyalarining akkumulyativ (to'plovchi) komponenti bo'lib, barcha axborot oqimlarining markazida joylashgan holda ularning yaxlit va izchil boshqarilishini ta'minlaydi.


Matnli va jadvalli protsessorlar matnli hujjatlarni yaratish, tahrirlash va tizimlashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, ma'lumotlar bazalarini shakllantirishda asosiy texnologik vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar axborotni aniq, tuzilgan va boshqariladigan shaklda saqlash imkonini berib, hujjatlar bilan ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Elektron pochta (e-mail) tizimlari foydalanuvchilarga ma'lumotlarni saqlash va tezkor uzatish imkonini beruvchi samarali aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Bu tizimlar foydalanuvchilar o'rtasida uzluksiz axborot almashinuvini ta'minlab, ish jarayonlarining barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, davlat hokimiyati organlari tomonidan fuqarolarning murojaatlarini elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash imkonini beruvchi axborot tizimlari keng joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar aholi bilan ochiq va shaffof muloqotni yo'lga qo'yish hamda tezkor bog'lanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Elektron kalendarlar esa mahalliy kompyuter tarmoqlari orqali tashkilot ichidagi ish jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va muvofiqlashtirish imkonini beradi. Ular xodimlarning samarali bandligini ta'minlash, muhim uchrashuvlar va topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishiga ko'maklashish orqali mehnat unumdorligini oshiradi.

Bugungi kunda videokonferensiya texnologiyalari zamonaviy kommunikatsiya vositalari sifatida real vaqt rejimida muhim muloqotlar, uchrashuvlar va muzokaralarni tashkil etishda keng qo'llanilmoqda. Xususan, COVID-19 pandemiyasi davrida ushbu texnologiyalar karantin cheklavlari sharoitida ish jarayonlari va ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, faks aloqasi ham ma'lum sohalarda o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu aloqa turi bir joyda o'qilgan hujjat tasvirini boshqa joyda qayta tiklash imkonini berishi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvi tizimida qo'llanilayotgan axborot texnologiyalarining asosiy turlarini alohida ko'rib chiqish va ularning moliyaviy hamda tashkiliy jarayonlardagi ahamiyatini baholash zarur hisoblanadi.



1-rasm. Axborot texnologiyalarining asosiy turlari.

"Elektron hukumat" tushunchasining shakllanishi bevosita davlat hokimiyati organlarining fuqarolarga yaqinlashish, boshqaruv jarayonlarini ochiq va qulay qilish ehtiyoji bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasida "Elektron hukumat" konsepsiyasi ustida ishlar XXI asr boshlarida boshlangan. Mazkur konsepsiyaning vujudga kelishi va amaliyotga joriy etilishi ayrim xorijiy davlatlarga nisbatan nisbatan kechroq boshlangan bo'lsa-da, mamlakatda elektron boshqaruv tizimini rivojlantirish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.

Axborot texnologiyalari fuqarolarning kundalik va hayotiy ehtiyojlarini qamrab olgan holda, bosqichma-bosqich davlat boshqaruvi tizimiga joriy etila boshlandi. Dastlabki bosqichlarda ushbu texnologiyalarning asosiy vazifasi muhim davlat hujjatlarini tizimlashtirish, qayta ishlash va saqlashdan iborat bo'lgan. Shu bilan birga, sovet davri tajribasi ham davlat boshqaruvida axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid turli konseptual yondashuvlarni shakllantirganini qayd etish lozim.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida kompyuter texnologiyalari jadal rivojlanib, o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Aynan shu davrda mutaxassislar kompyuter tizimlarining funksional imkoniyatlari nihoyatda keng ekanini anglay boshladilar. Natijada davlat boshqaruvida axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati tobora kuchaydi. Asosiy g'oya shundan iborat ediki, davlat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'z fuqarolari bilan samarali, tezkor va ikki tomonlama muloqotni yo'lga qo'yishi lozim edi.



Shu tariqa, davlat boshqaruvining yangi konsepsiyasi shakllandi va u “Elektron hukumat” g‘oyasining rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi. Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalarini joriy etish esa nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. Shu sababli ushbu tushunchaga yagona va umumqabul qilingan ta’rif berish murakkab bo‘lib, u ko‘pincha tadqiqot olib borayotgan muallifning ilmiy yondashuviga bog‘liq holda izohlanadi.

Hozirgi bosqichda davlat boshqaruvida axborot texnologiyalariga berilgan turli ilmiy ta’riflarni metodologik jihatdan asosli va o‘rinli deb baholash mumkin. Jumladan, A.O. Smirnov o‘z ilmiy ishlarida axborot texnologiyalari va axborot-texnologik tizimlarni davlat boshqaruvida raqobatbardoshlikni oshiruvchi muhim omil sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurati, avvalo, taqdim etilayotgan davlat xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Mazkur fikrlar bilan to‘liq kelishish mumkin, chunki davlat budjeti doirasida axborot texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini yengillashtiradi, moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni kuchaytiradi hamda davlat siyosatida belgilangan maqsad va vazifalarni izchil va samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada abstrakt-mantiqiy tahlil, analiz va sintez, iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, kuzatish, tizimli yondashuv, sabab va oqibat, zamon va makon, qiyoslash, korrelyatsiya va regressiya, sinergetik tahlil, kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat boshqaruvi tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish jarayoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmonga muvofiq izchil yo‘lga qo‘yildi. Mazkur strategiya doirasida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha hamda davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish ustuvor maqsad sifatida belgilandi.

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyotni shaffolashtirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu raqamli yondashuv moliyaviy monitoring imkoniyatlarini kengaytirish, ma’lumotlarni tezkor va chuqur tahlil qilish, shuningdek, davlat budjeti mablag‘larining oqilona va samarali sarflanishini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Natijada davlat moliyaviy boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlik darajasi sezilarli darajada oshib, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash uchun mustahkam axborot bazasi shakllanmoqda (2-jadval) [11].

2-jadval. O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish jarayonining tahlili

t/r	Raqamlashtirish yo‘nalishi	Ta’sir va natijalar
1.	Elektron budget tizimi	Davlat mablag‘larining shaffofligi oshdi, budget xarajatlari onlayn monitoring qilinishi ta’minlandi
2.	Elektron soliq xizmati	Soliq to‘lovchilar uchun qulaylik yaratildi, soliq to‘lovlarini nazorat qilish samaradorligi oshdi.
3.	Moliyaviy audit platformalari	Tekshiruv jarayonlari avtomatlashtirildi, inson omili ta’siri kamaydi.
4.	Korrupsiyaga qarshi elektron monitoring	Shubhali moliyaviy operatsiyalarni aniqlash va oldini olish imkoniyati oshdi.
5.	Davlat xaridlarini raqamlashtirish	Tender jarayonlari shaffoflashdi, raqobat muhiti yaxshilandi.


Raqamlashtirish jarayoni moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar davlat mablag‘laridan oqilona foydalanish, korrupsiyani kamaytirish va moliyaviy tizimda shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish bo‘yicha mavjud manbalar asosida quyidagi tahliliy jadvalni keltirish mumkin (3-jadval) [11].



3-jadval. Davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish bo'yicha ko'rsatkichlar

.	Raqamlashtirish yo'nalishi	Ta'sir va natijalar
1.	"Davlat auditi" dasturi	2022 yil 1 apreldan boshlab, barcha davlat moliyaviy nazorati tadbirlari ushbu dasturda ro'yxatga olinishi belgilangan. Bu nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.
2.	"Elektron nazoratchi-taftishchi" axborot tizimi	2022 yil mart oyida ushbu tizimning konsepsiyasi ishlab chiqilishi belgilangan bo'lib, bu moliyaviy nazorat jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan.
3.	Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi	2022 yil 14 fevraldagi PQ-128-son qaroriga, asosan, Moliya vazirligi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tashkil etilgan. Bu budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan.
4.	"Fuqarolar ishtirokidagi audit" tizimi	2022 yildan boshlab, har chorakda kamida 2 ta ob'ektda fuqarolar ishtirokida audit o'tkazish belgilangan. Bu jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalarining davlat moliyaviy nazoratiga integratsiyasi jarayonida bir qator strategik maqsad va aniq vazifalarni belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Ular davlat boshqaruvi tizimida samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta'minlash hamda fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan muhim hisoblanadi.



2-rasm. Moliyaviy nazoratning klassifikatsiyasi [10]



2-rasm ma'luotlariga ko'ra tekshirish o'tkazish joyiga ko'ra, soliq hamda bojxona organlari o'tkazadigan tekshirishlar, davlat va ijtimoiy budjetdan tashqari fondlar va boshqa organlar amalga oshiradigan moliyaviy nazorat kameral va joyida o'tkaziladigan tekshirishlarga bo'linadi. Moliyaviy nazoratning shakllari odatda amalga oshirilish reglamenti bo'yicha, o'tkazilish vaqti bo'yicha, nazoratning subyektlari bo'yicha va nazoratning obyektlari bo'yicha klassifikatsiya qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari surildi.

1. Axborot texnologiyalarini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari keng qamrovli bo'lib, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, kichik va o'rta biznes, shuningdek, elektron hukumat kabi muhim sohalarni o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalishlarning barchasi davlat boshqaruvi tizimida axborot texnologiyalarining rivojlanish istiqbollarini belgilab beradi. Ularni joriy etishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan faol foydalanilmoqda, biroq har bir ilg'or amaliyot milliy sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni inobatga olgan holda moslashtirilishi lozim.

2. Axborot texnologiyalarini joriy etish jarayoniga ko'pmillatli aholi tarkibi, diniy xilma-xillik va mamlakat hududining kengligi kabi omillar ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramay, bugungi kunda mamlakatimiz aholisi o'zini yagona fuqarolik jamiyatining a'zosi sifatida anglab, strategik ahamiyatga ega vazifalarni hamjihatlikda amalga oshirishga intilayotgani ijobiy tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda.

3. Boshqaruv jarayonining maqsad va vazifalarini belgilash bevosita boshqaruv subyektlarining kasbiy salohiyati va axborotdan foydalanish darajasiga bog'liq. Davlat boshqaruvida axborot texnologiyalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib, aholining axborotni olish, uzatish va undan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi.

4. Axborot texnologiyalarining izchil rivojlanishi jamiyat hayotini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Davlat hokimiyati organlarida boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish avtomatlashtirilgan kompyuter tizimlarini joriy etish, idoralararo axborot almashinuvini kuchaytirish va aholi bilan muloqotni me'yoriy-huquqiy asosda tashkil etish imkonini beradi.

5. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun davlat moliyaviy nazoratining nazariy va metodologik asoslarini chuqur ilmiy tahlil qilish hamda ularni amaldagi qonunchilikda yanada mukammal aks ettirish zarur. Hozirgi kunda davlat moliyaviy nazoratining tashqi, ichki, dastlabki, joriy va yakuniy shakllari shakllantirilgan bo'lib, ular davlatning maqsadli dasturlari va yo'l xaritalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonlar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va qonunchilik talablariga rioya etilishiga xizmat qiladi. Moliyaviy holatni tahlil qilish, moliyaviy ekspertiza va reviziya davlat moliyaviy nazoratining asosiy usullari sifatida qo'llanilmoqda.

6. Hozirga qadar davlat moliyaviy nazorati turli huquqiy va normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirib kelinmoqda. Shu bois, davlat moliyaviy nazoratining yagona va tizimli huquqiy asosini shakllantirish zarurati mavjud. Shuningdek, har bir vazirlik va idorada ichki moliyaviy nazorat tizimini zamonaviy va samarali tashkiliy yechimlar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizim nafaqat budjet intizomini mustahkamlash, balki xo'jalik faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirish imkonini ham berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-sonli "Budget mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7015258>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957?ONDATE=02.04.2021%2000>
3. Allen R., Tommasi D. Managing Public Expenditure. A Reference Book for Transition Countries. Paris, OECD, 2001.
4. Bolshoy tolkoviy slovar russkogo yazyka / Pod red. S.A. Kuznesova. SPb.: Norint, 1998. 1534 s.
5. Барихин А.Б. Большая юридическая энциклопедия. (Серия «Профессиональные справочники и энциклопедии») – М.: Книжный мир, 2010. 960 с.
6. Дедок Н.М., Шарипова В.А. Види информационных технологий, используемых в правовой сфере // Соплюкуим-журнал. 2021. № 14-4 (101). С. 31-32.
7. Latipova N. Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit xizmatini transformatsiya qilishning fundamental asoslari masalalarining yoritilishi // Innovative Development in Educational Activities. 2024. T. 3. № 4. S. 197-200.
8. Несмиянова И.О. Информационные технологии: этап развития, понятие и классификация // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2020. № 1. С. 149-155. AFMS №50
9. Safarov A.R. Davlat sektorida moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy va tashkiliy asoslar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor
10. Ro'zimatova N.A. Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2025-yil, aprel. №4-son.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>